



DINIY MATNLAR TARJIMASI: LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Termiz davlat universiteti

Karimov Suhrob Abdurahmonovich

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarjimashunoslik sohasida diniy matnlarni tarjima qilish jarayonida tilmoch duch kelishi mumkin bo'lgan leksik-semantik muammolar tahliliga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Diniy matnlar, leksik-semantik muammolar, yechimlar, madaniy tafovut, lakunalar, klassifikator, deskriptiv tarjima va betaraflik.*

TRANSLATION OF RELIGIOUS TEXTS: LEXICAL-SEMANTIC PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

Abstract: *This article is devoted to the analysis of lexical-semantic problems that a translator may encounter in the process of translating religious texts within the field of translation studies.*

Keywords: *Religious texts, lexical-semantic problems, solutions, cultural divergence, lacunae, classifier, descriptive translation, neutrality.*

Asosiy qism

Diniy matnlarni tarjima qilish tarjimon duch kelishi mumkin bo'lgan eng qiyin holatlardan biri hisoblanadi. U boshqa tarjima matnlari yoki manbalardan farqli o'laroq, ko'proq diqqat, lisoniy hamda teologik (diniy) ilm talab qilishi bilan tarjimonga yana ham ko'proq mas'uliyat yuklaydi.

Tarjimon teologik bilimlari bilan bir qatorda, tarjima chog'ida tilning stilistik, poetik hamda arxaik va lug'at xususiyatlarini ham e'tiborga olishi lozim bo'ladi. Diniy matnlar odatda ko'plab azaliy haqiqatlarni o'z ichiga olgani sababli, ularni tarjima qilishda tarjimon zamonaviy tushunchalar, xususan, neologizmlardan qochishi kerak bo'ladi. Xuddi shunday yuqorida keltirganimiz arxaik tushunchalarning o'z holida saqlanib qolishi matnning tarixiy haqiqatini o'quvchiga bildirish uchun eng maqbul yo'llardan bo'lib xizmat qiladi.



Har qanday til leksik, semantik, fonetik va morfologik xususiyatlar bilan yo'g'rilgan muhim haqiqatlarni o'z lug'atida jamlagan bo'ladi. Bunday maxsus lug'atlar, o'z navbatida, shu lug'atni shakllantirgan klassifikatsiyani o'z ichiga oladi. So'ngra ushbu til doirasida tarjimon duch keladigan haqiqatlar tarjimasi muammolariga aniqroq yechimlarni taqdim etadi.

Diniy matnlarni tarjima qilishda so'z va ma'no bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. O'tmishda ko'plab olimlar diniy matnlarni tarjima qilish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Gamil Qur'oni Karim ma'nolarini fransuz tiliga tarjima qilishga to'sqinlik qiluvchi muammolar ustida tadqiqot o'tkazgan. Xususan, tadqiqotda tarjimon duch keladigan qiyinchiliklar, turli tarjima usullari va ushbu yondashuvlardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan xatolar qiyosiy tahlil qilingan.

Shuni ta'kidlash kerakki, sifatli tarjima uchun faqat til bilishning o'zi yetarli emas. Tarjimon nafaqat tarjima qobiliyatiga ega bo'lishi, balki asl matnning kontekstini ham chuqur anglashi kerak. Bundan tashqari, tarjima qilinayotgan xalqning madaniyati va tarixini o'rganish ham muhim rol o'ynaydi.

Har qanday yaxshi tarjima quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) Mantiqiy ma'noga ega bo'lishi;
- 2) Asl nusxaning ruhi va uslubini yetkazib olishi;
- 3) Tabiiy va oson ifoda shakliga ega bo'lishi;
- 4) O'quvchida asl nusxadagiga o'xshash taassurot uyg'otishi kerak.

O'zbek tilidagi aksariyat diniy terminlar arab tilidan kirib kelganligi e'tiboridan, tarjimon bu terminlarning asl (arab tilidagi) ma'nosini ingliz tiliga o'girishni o'rganib olishi kerak. Xuddi shu holda tarjimon leksik-semantik muammolarga duch kelishi mumkin.

Masalan, "halol" va "harom" so'zlarining ingliz tilida "permissible" (ruxsat etilgan) va "forbidden" (taqiqlangan) kabi lug'aviy ekvivalentlari bo'lsa-da, bu so'zlar dinning tushunchasidagi ijtimoiy va diniy ma'no qatlamlarini to'liq qamrab olmaydi. Bunday hollarda ushbu so'zlarni o'z holicha qoldirib (o'zlashma so'z sifatida), qisqacha izoh berish tavsiya etiladi.



Yana bir muammo – ekvivalentlarning yo‘qligi (lakunalar). Masalan, "idda" so‘zining ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili yo‘q, chunki ularning madaniyati va e‘tiqodida bunday holat mavjud emas. Ma‘lumot o‘rnida, "idda" – ayol kishi eri vafot etganidan yoki ajrashganidan keyin boshqa turmush qurmasdan kutishi kerak bo‘lgan muddatdir.

Vladimir Ivir, Nyumark va boshqa olimlar bunday muammolarni hal qilishda bir qator strategiyalarni taklif qilishgan: ta‘rif berish, lug‘aviy tarjima, o‘rinbosar so‘z qo‘llash, yangi leksik birlik yaratish, tashlab ketish yoki qo‘shimcha kiritish shular jumlasidandir.

Diniy matnlar tarjimasida klassifikator (tasniflagich) tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi va o‘z o‘rnida 3 ta asosiy guruhga bo‘linadi:

1) Leksik-semantik klassifikatorlar (so‘z turkumlari): Bu guruh so‘zlarning ma‘no ko‘lamini belgilaydi.

Teonimlar: Xudoning ismlari (Al-Xoliq, Ar-Rohman).

Hagionimlar: Muqaddas shaxslar va joylar nomi.

Ritual terminlar: Ibodat amallari (Tahorat, Namoz, Haj).

Eskatologik terminlar: Oxirat tushunchalari (Mahshar, Sirot).

2) Konseptual klassifikatorlar (g‘oyaviy farqlar): Diniy tushunchalarning madaniy yuklamasini ko‘rsatadi.

Ekvivalenti yo‘q so‘zlar: Masalan, "Zakot" shunchaki "soliq" emas, balki ma‘naviy majburiyat.

Madaniy realiyalar: Faqat islom olamiga xos bo‘lgan tushunchalar (Masalan: E‘tikof, Fitr).

3) Funksional-uslubiy klassifikatorlar (matn turi): Tarjima uslubini belgilaydi.

Vahiy / Muqaddas matn: So‘zma-so‘z va o‘ta aniq tarjima talab qilinadi.

Diniy-huquqiy (Fiqh): Terminologiyaga ustunlik va huquqiy aniqlik.

Diniy-badiiy: Pand-nasihat va hissiyotlilik muhim.



Bundan tashqari, ushbu turdagi matnlar tarjimasida deskriptiv (tavsifiy) tarjima va betaraflik tamoyili tarjimondan ham yuksak akademik bilim, ham etik mas'uliyat talab qiladigan eng muhim usullardandir.

1) Deskriptiv (tavsifiy) tarjima: Bu usul maqsadli tilida muqobili bo'lmagan diniy terminlarni tushuntirish orqali o'girishdir. Uning maqsadi birgina so'z bilan ma'noni toraytirib qo'ymaslikdir. Masalan, "Zakot" – "mol-mulkning ma'lum qismini kambag'allarga berish ko'rinishidagi majburiy ibodat". Buning o'ziga xos usuli esa matn ichida qisqa izoh berish yoki izohli lug'atdan foydalanishdir.

2) Betaraflik (neytrallik) tamoyili: Bu tamoyil diniy matnlar tarjimasidagi eng nozik jihatlardan bo'lib, tarjimon qanday e'tiqodda bo'lishidan qat'i nazar, betaraflik e'tibori bilan asl nusxadagi matn ma'nosini o'z holicha saqlagan holda tarjimani amalga oshirishi lozim. Betaraflik tamoyili ham o'z navbatida uchta ichki qismdan tashkil topadi:

2.1.Obyektivlik: Asl matndagi qattiq yoki yumshoq ohangni o'zgartirmasdan yetkazish (masalan, "kofir" yoki "mushrik" so'zlarini yumshatmaslik).

2.2. Madaniy hurmat: Bir din terminlarini ikkinchi din terminlari bilan almashtirmaslik (masalan, cherkovdagi marosimni masjid terminlari bilan atamaslik).

2.3.Xolislik: Tarjimon o'zini muallif yoki sharhlovchi emas, shunchaki xolis ko'prik deb bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli tarjima uchun tarjimon nafaqat ikki til egasi, balki xolis va ijodkor "madaniyatlararo ko'prik" bo'lishi shart. Faqatgina terminologik aniqlik va madaniy xolislik uyg'unlashgandagina maqsadli auditoriya uchun tushunarli va ishonchli matn yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
- 2.Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
- 3.Salomov, G'. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
- 4.Musaev, Q. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent



5. Abdul-Raof, H. (2001). *Qur'an Translation: Discourse, Texture and Exegesis*.
London: Routledge.